

ESHONGUZAR MAHALLASIDA DAVRA SUHBATI O'TKAZILDI

Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudining raisi A.Akbarov va Fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudi sudyasi S.Akbarov ishtirokida Qo'shetea tumanidagi "Eshonguzar" MFYda "Ayollar daftariga" kiritilgan xotin-qizlar hamda MFY hududida istiqomat qiluvchi fuqarolar bilan davra suhbat o'tkazildi.

Davra suhbat davomida, O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi qabul qilinganligining 30 yilligini keng nishonlash hamda asosiy qonunimizning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini targ'ib etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbida qonunga hurmat, vatanga mehr va sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdag'i "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan 2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish, Milliy dasturni 2022-2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasiga asosan xotin-qizlar orasida jinoyatchilik hamda huquqbazarliklarning oldini olish, xususan xotin-qizlar orasida qonuniylik va huquq-targ'ibotni ta'minlash, huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning zamonaviy usul va shakillarini tatbiq etish yuzasidan huquqbazarliklarga murosasizlik munosabatini shakillantirish, huquqiy nigilizmga barham berish va fuqarolarning qonunga itoatkorlik hissini kuchaytirish maqsadida mahallalardagi "Ayollar maslahat kengashlari"da "Huquqiy bilimlar" mavzusida oilada huquqiy savodxonlik va huquqiy tarbiyani yuksaltirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabr kuni qabul qilingan "Xotin-qizlarni tayziq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-sonli Qonuni mazmun-mohiyati haqida tushunchalar berildi.

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#),

2022-11-28 16:30:10